

“ONALAR BOG’I” XO’JAYLI TUMANIDA

□□Obodonlashtirish va ko’kalamzorlashtirish tadbirlari yurtimizning barcha hududlarida izchil davom ettirilmoqda.

Image not found or type unknown

□□Bugun Qoraqalpog’iston Respublikasi Xo’jayli tumani “Janajap” OFY hududida Qoraqalpog’iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo’mitasi tashabbusi bilan “Yashil makon” umumxalq milliy loyihasi doirasida “Onalar yashil makon uchun” shiori ostida “Onalar bog’i”ni yaratish tadbiri bo’lib o’tdi.

□□Unda Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi o’rinbosari - Oila va xotin-qizlar qo’mitasi raisi M.Axmedova va tumandagi “Oqila ayollar” harakati a’zolari, mahalladagi nuroniy onaxonlar va faol xotin-qizlar ishtirok etdi.

Image not found or type unknown

□□“Janajap” OFY hududidagi 2 gektar yerga 100 tup daraxt ekildi va nuroniy onaxonlarimizning yaxshi niyatlari bilan “Onalar bog’i” yaratildi. Tadbir musiqiy konsert dasturi bilan o’z nihoyasiga etdi.

Image not found or type unknown

Qoraqalpog’iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo’mitasi matbuot xizmati